
"Abdulla Qodiriy" mahallasining ichki yo'llari asfalt qilinmoqda

Ayni kunlarda Farg'ona shahridagi mahalla fuqarolar yig'inlarida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 25 oktyabrdagi «2022-2023 yillarda mahallalar infratuzilmasini yanada yaxshilash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-408-sonli qaroriga asosan keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda.

Xususan, "Abdulla Qodiriy" mahalla fuqarolar yig'ini hududidagi ichki yo'llarning 3800 metr kvadrat qismi asfalt qilinishi belgilangan. Hozirda yo'llarni asfaltlashtirish ishlari amalga oshirilmoqda. Mazkur ishlar uchun qaror asosida 500 mln. so'mga yaqin mablag' ajratilgan.

2023-03-24 16:58:24